

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11

NIZOLARNI ONLAYN HAL ETISH JARAYONIDA ONLAYN MEDIATSIYANI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Abdihakimov Samandar Salohiddin o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura bosqichi talabasi

E-mail: samandarabdihakimov86@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Onlayn mediatsiyani tahlil qilish jarayonida uni qo'llash bilan bog'liq afzalliklar va kamchiliklar tahlil etilgan bo'lib, onlayn mediatsiyaning afzalliklari sifatida mediatsiya jarayonining olib borishdagi qulayliklar, jumladan harajatlarning kamligi, yurisdiksiya muommosining yo'qligi va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulayligi keltiriladigan bo'lsa, kamchiliklari sifatida esa inson hissiyotining yetishmasligi, internet tarmog'iga kirishdagi muommolar, maxfiylik va xavfsizlik tizimidagi kamchiliklar keltirilib o'tiladi. Yuqorida keltirilib o'tilgan kamchiliklar va muommolar atroflicha o'rganilib, ularga muqobil yechimlar taklif etiladi. Ushbu fikrlar asosida yakuniy shaxsiy fikrlar bayon etiladi. Xulosa qilinadiki, onlayn mediatsiya instituti nizolarni hal etishda alohida ahamiyatga ega va uni qo'llash jarayonidagi muqobil yechimlar ham mavjud.

Kalit so'zlar: Mediatsiya, onlayn mediatsiya, nizolarni hal etishning muqobil usullari (ADR), nizolarni onlayn hal etish (ODR), muzokara, nizo

АННОТАЦИЯ

В этой статье анализируются преимущества и недостатки использования онлайн-медиации, а к преимуществам онлайн-медиации относятся простота проведения процесса медиации, в том числе ее низкая стоимость, отсутствие юрисдикционных проблем и простота использования для частных лиц. Отсутствие человеческих эмоций, проблемы с доступом в Интернет, а также недостатки конфиденциальности и безопасности были названы слабыми сторонами, если таковые имеются. Вышеуказанные недостатки и проблемы были тщательно изучены и предложены альтернативные решения. На основе этих соображений представлены окончательные личные мнения. Сделан вывод, что институт онлайн-медиации имеет особое значение при разрешении споров и существуют альтернативные варианты решения проблем в процессе его применения.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11

Ключевые слова: медиация, онлайн-медиация, альтернативное разрешение споров (ADR), онлайн-разрешение споров (ODR), переговоры, спор.

ABSTRACT

This article analyzes the advantages and disadvantages associated with the use of online mediation in the process of analysis, and the advantages of online mediation include the ease of conducting the mediation process, including low costs, lack of jurisdictional issues, and ease of use for persons with disabilities. if there is, the lack of human emotion, problems in accessing the Internet, and shortcomings in the privacy and security system have been mentioned as disadvantages. The shortcomings and problems mentioned above are thoroughly studied and alternative solutions are proposed. Based on these opinions, final personal opinions are presented. It is concluded that the institution of online mediation is of particular importance in resolving disputes, and there are alternative solutions to the problems in the process of its application.

Keywords: Mediation, online mediation, alternative dispute resolution (ADR), online dispute resolution (ODR), negotiation, dispute.

KIRISH

Turli nizolarni hal qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda avj olmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy nizolarni masofadan turib hal etish ham milliy sud tizimi ham nizolarni hal etishning muqobil usullari (muzokara, mediatsiya, arbitraj) tizimida keng qo'llanilib kelinmoqda. Internet va boshqa elektron vositalari rivojlanishiga qadar nizolarni muqobil hal etish usullari faqatgina taraflar bir-biri bilan ma'lum bir joyda oldindan belgilangan holda amalga oshirilgan. Bunda taraflar yuzma yuz uchrashib o'zaro muzokaralar olib borishadi. Taraflarning hamma hujjatlari ham qog'oz shaklida topshiriladi. Onlayn mediatsiyaning kirib kelishiga asosiy sabab taraflarning vaqtini hamda ularning mablag'larini imkon qadar tejashdan iborat. Ma'lumki, xalqaro iqtisodiy nizolarda taraflar doimo turli davlatlardan hisoblanadi. Ushbu vaziyatda taraflar o'ttada kelib chiqqan nizolarni hal etishda biri ikkinchisining yashab turgan hududiga yoki joylashgan joyiga borishi, yoki ikkalasi uchun maqbul bo'lgan hududni tanlab, o'sha yerda muzokara olib borishi yoki mediatsiya jarayonini qo'llashi mumkin. Ammo, mediatsiya jarayonini onlayn tarzda

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11

olib borish taraflarga yuqorida keltirilgan ortiqcha harakatlardan xalos bo'lishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani yoritish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Ushbu maqolada onlayn mediatsiya institutining rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Onlayn mediatsiya institutining kelib chiqishi, rivojlanishi, onlayn mediatsiya tushunchasining nazariy tahlili, nizolarni onlayn mediatsiya yordamida hal etishdagi afzalliklar va kamchiliklar tahlil etildi.

Yevropa Parlamenti va Kengashining 2008-yil 21-maydagi 52-sonli fuqarolik va tijorat sohalarida mediatsiyani qo'llash bilan bog'liq Direktivasi va 2013-yil 21-maydagi 524/2013-sonli "Iste'molchi nizolari bo'yicha nizolarni onlayn hal etish" to'g'risidagi reglamenti, O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 03-iyuldagagi "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuni metodologik manba bo'lib belgilandi. Shu bilan birgalikda huquqshunos M.X Rustamboyev, M. Baxramovna hamda chet el huquqshunos olimlari N.Alexander, D.D.Noce, S.Hattotuva, M.C.Tyler, L.J.Gibbons, Fernanda S. Rossi, Amy Holtzworth-Munroe, Amy G. Applegate, Connie J. Beck, Jeannie M. Adams, Darrell F. Hale, Noam Ebner, Joseph W. Goodman, Andrea M Braeutigamlarning ilmiy ishlari hamda tajribalaridan keng foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Onlayn mediatsiya institutining kelib chiqish va shakllanishi, nizolarni hal etishda onlayn mediatsiyaning o'rni, onlayn mediatsiyaning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari, onlayn mediatsiyani qo'llashda kelib chiqadigan muommolar va ularga muqobil yechimlar.

ONLAYN MEDIATSIYA INSTITUTINING KELIB CHIQISHI VA SHAKLLANISHI

Nizolarni muqobil hal etish (ADR)ning internet rivojlanishi natijasida nizolarni onlayn hal etih (ODR) shakli ham rivojlanib keng tarqalmoqda. Nizolarni onlayn hal etish (ODR) o'z ichiga asosan elektron tijorat va boshqa internet bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqishni olishidan tashqari, bugungi kunda ODR muzokara, mediatsiya va arbitraj protsesslarini ham o'z ichiga oladi. Ya'ni, muzokara, mediatsiya va arbitrajning ham onlayn o'takizsh shakllari mavjud. Biz esa, onlayn mediatsiya to'xtalsak.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11

Onlayn mediatsiya, xususan, an'anaviy mediatsiya texnikalarini onlayn muhitda foydalanishini o'z ichiga oladi.¹ Onlayn mediatsiya jarayonida an'anavaiy mediatsiyada qo'llaniladigan barcha jarayonlar masofadan turib olib boriladi. Ushbu jarayonlar zamонавиу texnika vositalari va bevosita internet orqali olib boriladi.

An'anaviy mediatsiya kabi, onlayn mediatsiya turli xil osonlashtiruvchi, baholovchi va o'zgartiruvchi vositalaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin.

Nizolarni onlayn hal etish 1995-yilgacha muhim hisoblanmagan, chunki bu paytlarda internet assosan harbiy va akademik muassalarda qo'llanilgan, xolos. Internet omma orasida rivojlangan sari tijoratlashgan onlayn bozorlar paydo bo'la boshladi. Ushbu onlayn tijoratlarda kelib chiqadigan nizolarni hal etish uchun ham tez va samarali usullar kerak bo'la boshladi. Bu esa albatta nizolarni masofadan turib yechim topish edi. Shu sababli hukumatlar va boshqa xususiy tashkolotlar nizolarni onlayn hal etish (ODR)ning rivojlanishini qo'llab quvvatladi.

Oflayn mediatsiyada yuzma-yuz uchrashish muhim bo'lsa, onlayn mediatsiyada uchrashuvlar virtual reallikda amalga oshiriladi, bu jarayonda nizo tomonlari va mediator aslida yuzma-yuz uchrashmaydi. Bu shuni anglatadiki, dunyoning turli burchaklaridagi odamlar xavfsiz shifrlangan elektron pochta yoki xavfsiz chat xonalari yoki ba'zi hollarda videokonferensaloqa orqali nizoni hal qilish uchun onlayn vositachilikdan foydalanishlari mumkin. Onlayn mediatsiyadan foydalanishni istagan tomonlar internet tarmoqlariga ulangan kompyuter kerak. Mediatsiya tizimi va fayl faqat vakolatli shaxslar kirishi mumkin bo'lган serverda joylashgan bo'ladi. Tizim mediator yoki ko'p hollarda mediatsiya tashkiloti tomonidan taqdim etiladi.

Onlayn mediatsiya jarayoni oflaysin jarayonidan unchalik katta farq qilmaydi. Chunki, onlayn mediatsiya jarayonida an'anaviy yuzma-yuz protseduradan ko'ra boshqa aloqa shakllari qo'llaniladi. Onlayn mediatsiya jarayonidagi birinchi bosqich nizoni onlayn mediator yoki mediatsiya tashkilotining veb-saytiga topshirish hisoblanadi. Keyingi bosqich esa mediatsiya tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi. Tashkilot taraflar onlayn mediatsiya tartib-qoidalarida ishtiroy etishga tayyormi yoki yo'qligini bilish uchun ular bilan bog'lanadi. Agar mediatsiya olib boruvchi tashkilot

¹ PONTE & CAVENAGH, supra note 10, at 63; Lucille M. Ponte, Throwing Bad Money After Bad: Can Online Dispute Resolution (ODR) Really Deliver the Goods for the Unhappy Internet Shopper?, 3 TUL. J. TECH. & INTELL. PROP. 55, 75-79 (2001) [hereinafter Ponte, Throwing Bad Money]

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11

taraflarni onlayn mediatsiyada qatnashishga tayyor ekanliklarini bilishsa, mediator tomonlar tomonidan tanlanadi yoki tashkilot tomonidan tayinlanadi. Ikkala tomon ham mediatsiya qoidalaridan xabardor bo'lishi kerak, odatda bunga tegishli veb-saytdagi havola orqali erishiladi. Mediator o'zini tanishtiradi va tomonlarga jarayonni tushuntiradi. Ba'zi hollarda tomonlar o'z muammolarini mediatsiya yo'li bilan hal qilish niyatida ekanliklarini ko'rsatuvchi mediatsiya bitimi imzolanadi.

ONLAYN MEDIATSIYANING O'ZIGA XOS AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Nizolarni hal etishda onlayn mediatsyaning bir qancha o'ziga xos afzalliklari mavjud. An'anaviy mediatsiyada bo'lgani kabi, onlayn mediatsiya ham mediatorga bahsli shaxslarning alohida ehtiyojlarini qondirish uchun jarayonni moslashtirish imkonini beradi.² An'anaviy mediatsyaning bir nechta afzalliklaridan tashqari, nizolarni internet orqali masofadan turib hal etishning ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud, ya'ni: "Bu jarayon ko'proq moslashuvchanlik, ijodiy yechimlar va tezroq qarorlar qabul qilish imkonini beradi."³ Xususan, onlayn mediatsyaning afzalliklarini qulaylik, chiqimlarning kamligi va yurisdiksya borasida muommolarning kamligi doirasida ko'rib, tahlil qilib chiqamiz

Birinchidan, mediatsiya jarayonini olib borishdagi qulaylik. Onlayn mediatsyaning taraflar uchun eng asosiy ijoboiy tarafi bu qulaylikdir. Taraflar kelib chiqqan nizo bo'yicha ularni hal etish uchun o'zi yashab turgan hududdan uzoq joyga borishi shart emas. Bilamizki, ko'plab iqtisodiy kelishuvlar turli davlat fuqarolari o'rtaida tuziladi. Bunda ular bir davlatdan ikkinchi davlat hududiga o'z mahsulotlarini jo'natishadi. Ushbu vaziyatlarda kelib chiqqan nizolarni hal etishda taraflar an'anaviy mediatsiyani qo'llashmoqchi bo'lishsa, ular bir tomonning sudiga borib murojaat qilishi lozim bo'ladi. Bu esa, albatta, ortiqcha vaqt va mablag' talab qiladi. Onlayn mediatsiya esa ushbu muommoga yechim hisoblanadi. Ya'ni, taraflar onlayn mediatsiyani qo'llashmoqchi bo'lishsa, ularning o'z uyidan yiroqqa ketishiga hojat yo'q. Ular o'zi joylashgan joydan turib onlayn mediatsiyani qo'llab, nizoga

² E. Casey Lide, ADR and Cyberspace: The Role of Alternative Dispute Resolution in Online Commerce, Intellectual Property and Defamation, 12 OHIO ST. J. ON DISP. RESOL. 193, at 208 (1996).

³ George H. Friedman, Alternative Dispute Resolution and Emerging Online Technologies: Challenges and Opportunities, 19 HASTINGS COMM. & ENT. L.J. 695, 712 (1997)

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11

yechim topa olishadi. Bunda ularga kompyuter va boshqa elektron texnika vositalari yordam beradi.

Yana bir boshqa onlayn mediatsiyani qo'llashdagi qulayliklardan biri taraflarning nizoni hal etishda bir-biriga haftada yeti kun kunda yigirma to'rt soat murojaat qila olishidir. Ular nafaqat bir-birlari bilan balki o'zлari tanlagan mediator bilan ham xohlagan payti bog'lana olishlari mumkin. An'anaviy mediatsiyaning qo'llanilishiag asosiy sabablardan biri ham taraflarning sudga murojaat qilib, uning qarorini haftalab kutish muommosidan qutulish hisoblanadi. Ammo, onlayn mediatsiyada bu jarayon an'anaviy mediatsiyadan ham tezroq hal etilihsi mumkin. Chunki, taraflarning bir joyga yig'ilib muzokara qilishiga ham anchagina vaqt ketishi mumkin. Agar ular onlayn mediatsiyani qo'llashsa an'anaviy mediatsiyanı tashkillashtirish uchun ketgan vaqtini ham tejab qolgan bo'lishadi.

Shuningdek, mediatsiyada kun tartibini belgilash ham ancha qulay hisoblanadi. Ya'ni, tomonlar onlayn mediatsiya jarayonida o'z pozitsiyalarini ma'lum elektron vositalar orqali bir-biriga jo'natishi mumkin. Bu xabarlarni taraflar xohlagan paytida o'qib va unga javob yuborishi mumkin. Ular ma'lum joyda yuzma yuz ko'rishishiga esa hojat yo'q.

Ba'zida tomonlar mediatorni tayinlashda ikkilanishi mumkin. Ammo, onlayn mediatsiya jarayonida bunday qilishga hojat yo'q. Chunki, onlayn nizolarni hal etish platformalarida arbitraj va mediatorlar haqida ma'lumotlar to'liq ko'rsatilgan bo'lib, ular kompyuter savodxonligi hamda onlayn nizolarni hal etishgda alohida malakaga ega shaxslar bo'lishadi.

Bundan tashqari taraflarga mediator kokus tayinlamoqchi bo'lsa, bir taraf ikkinchi tarafni kutib turmasdan, o'z vaqtini tejashi mumkin. Bu holatda kokus tayinlashda mediator ham taraflar ham o'z vaqtini tejab qoladi.

Ikkinchidan, nizoni hal etish uchun sarflanadigan chiqimlarning kamligi. Birinchi navbatda tomonlar nizolarni hal etishda mediatsiyani qo'llashsa, ular uchrashuvlar olib borishi lozim. Bunda uchrashuvlar tayinlanadigan joyga borish harajatlari masofadan turib mediatsiya qo'llanganda ancha tejaladi. Chunki, bilamizki an'anaviy mediatsiyada taraflar uchrashuv olib borishi uchun ma'lum bir bino yoki alohida joy ijaraga olinishi lozim bo'ladi. Bundan tashqari nizolashuvchi taraflar turli davlatlardan bo'lishsa, ularning yo'l harajatlari va boshqa vaqtincha yashash harajatlar talab etiladi. Onlayn mediatsiyada esa bu harajatlar anchayin qisqaradi.

Uchinchidan, yurisdiksiya muommosining yo'qligi. Ma'lumki, taraflar o'rtaqidagi nizo milliy sud tizimida ko'rilsa ushbu muommoning sudga tegishlilik va taalluqlilk masalalari birinchi navbatda sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Ushbu jarayonlar ancha vaqt ni olishidan tashqari, ma'lum bir nizolar yurisdiksiyaga to'g'ri kelmasligi mumkin. Bu holatda taraflar asosan nizolarni hal etishning muqobil usullaridan foydalanishadi. Ayniqsa, nizolarni onlayn hal etish yurisdiksiya masalasiga e'tibor qaratmaydi. Chunki, nizolarni onlayn hal etish tizimida taraflar qonunga tayanishidan tashqari, ko'proq o'zlarining shaxsiy manfaatlariga e'tibor qaratishadi.

To'rtinchidan, imkoniyati cheklanganlar uchun qulay tizim ekanligi. An'anvaiy mediatsiyada jismoniy imkoniyati cheklanganlar uchun sharoit va imkoniyatlardan yaratib berilishiga qaramasdan, ularning mediatsiya o'tkaziladigan hududga borishi ularga qiyinchilik tug'diradi. Chunki ular yo'lda turli to'siqlarga uchrashi mumkin. Shu sababli ular mediatsiya jarayoniga o'zi bilan yaqin shaxslaridan biri bilan kelishiga majbur bo'ladi. Bunda esa ushbu shaxslarning mediatsiyada maxfiylik prinsipiiga oid huquqlari to'liq ta'minlanmasligi mumkin. Imkoniyati cheklangan shaxslar bilan kelgan shaxslar bunga monelik qilishi mumkin. Onlayn mediatsiya jarayonida esa bu to'siqlar mutlaqo muommo tug'dirmaydi. Chunki, ushbu shaxslar bemalol uyidan chiqmasdan turib muzokaralar olib borishi va hujjatlarni elektron ko'rinishda taqdim etishi mumkin bo'ladi.

Nizolarni onlayn muhitda hal etish uchun albatta internet veb-saytlari kata o'rindan tutadi. Bu borada imkoniyati cheklanganlar uchun Ontario, Kanada nogironlar veb-saytlar va veb-kontent bilan samarali muloqot qilishlarini ta'minlash uchun aniq choralar ko'rgan birinchi qonunchilikka egaedi. Ontario nogironlar uchun imkoniyatlarni oshirish va ularning hayotda to'liq ishtirok etishi uchun to'siqlarni aniqlash, olib tashlash va oldini olishda ishtirok etishga imkon berish uchun 2001 yilda Ontariyalik nogironlar to'g'risidagi qonunni qabul qildi. Bu qonun davlat, xususiy va notijorat tashkilotlari rionga qilishlari kerak bo'lgan mavjud standartlarini yaratuvchi qonun hisoblanadi.

Onlayn mediatsiya yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bir nechta afzalliklarga ega bo'lishiga qaramasdan, uni qo'llashda bir necha muommo va kamchiliklarga duch kelish mumkin. Nizolarni onlayn hal etishda an'anaviy mediatsiyada qo'llanilishi mumkin bo'lgan ba'zi qulayliklar cheklangan bo'ladi. Joel Eisen ham mediatsiya

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11

institutini tahlil qilib shunday deydi: "mediatsiya amaliyoti onlayn muhitda takrorlab bo'lmaydi, chunki kibir muhit real dunyoning oyna tasviri emas." Ushbu kelib chiqishi mumkin bo'lgan muommolarni ko'rib chiqsak.

Birinchidan, inson hissiyotlarining yetishmasligi (loss of face to face contact). Bilamizki, an'anaviy mediatsiya jarayonida taraflar bir joyda turib bir-birlari bilan o'rtadagi muommoni hal qilish uchun o'zaro muzokaralar olib boradi. Ushbu jarayon borishi va taraflarni kelishuvchanlikka undash uchun mediator ishtirok etadi. Masofadan turib nizolarni hal etishda esa taraflar bir-birini ko'rmasdan turib yoki real vaqt rejimida turli elektron vositalari orqali muommoni hal etadi. Bu jarayonning birinchisida, ya'ni bir-birini ko'rmasdan turib faqatgina hujjatlarni elektron pochta va boshqa aloqa vositalari orqali yuborishganida, ular o'zlarining ichidagi his-tuyg'ularini namoyish eta olishmaydi. Shuningdek, ular bir-birini yetarli darajada bila olish imkoniga ega bo'lishmaydi. Chunki, inson ko'rmagan insoni bilan muloqat qilganida uning ichidagi asl niyati yoki nizo bo'yicha fikrlarini to'liq anglab yeta olmaydi. Masalan, mediatsiyaning bir qismi sifatida tomonlarga tashvishlarni tinglash va tushunishga yordam berish, bir-biriga hamdard bo'lish, his-tuyg'ularni oshkor etish va his-tuyg'ularga qarshi turish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ko'pgina mediatsiya ishtirokchilari mediatsiya jarayonida suddagidan ko'ra erkinroq va o'z his-tuyg'ularni tashqariga chiqarishga qulay his qilishadi. Ishning o'z versiyasini to'g'ridan-to'g'ri qarama-qarshi tomonga aytish va ifodalash imkoniyati masofadan turib nizoni hal etishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Bundan tashqari, ushbu jarayonda mediator taraflar bilan yuzma yuz ko'rishmagani uchun, ularni bir qarorga kelishga undashda ba'zi qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ya'ni, yuzma yuz uchrashuvda mediator o'zining xatti-harakatlari va boshqa xil undash va ta'sir etish vositalarini bemalol qo'llashi mumkin. Bu harakatlar bevosita mediator uchun ikki taraf o'rtasidagi vaziyatni yumashatishi hamda ularni murosaga chaqirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ammo, yuqorida aytib o'tganimizdek onlayn mediatsiya faqat elektron vositalar orqali hal etilsa, bu xatti-harakatlar cheklanadi.

Onlayn mediatsiya yoki elektron pochta muhiti mediatori o'zaro munosabatlarning ohangini boshqarish yoki tinchlantirishni qiyinlashtiradi. Mediator boshlanishdayoq tomonlarni tinchlantirish va muammolarni barqaror hal qilish uchun muhit yaratish uchun o'zining jismoniy "shaxsligi" dan foydalana olmaydi. Xuddi

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11

shunday, nizolashuvchilarining jismoniy ishtiroki bo'lmasa, mediator yuzma-yuz mediatsiya jarayonlarining bir qismi bo'lgan tana harakatlari orqali ta'sir etish, yuz ifodasi va og'zaki ohangning intuitiv belgilaridan foydalanishda qiynaladi.⁴

Mediatsiyani masofadan turib olib borishda taraflarning bir biri bilan bo'lgan dialoglari o'rniغا elektron pochta yoki boshqa masofadan turib suhbatlashish imkonini beruvchi elektron vositalar o'rmini bosadi. Bu esa taraflarning bir-biriga xabar berish jarayonini qiyinlashtiradi. Internetdagи nizolar o'rtasida katta masofalar mavjud. Tomonlar ochiq muloqotni yaratish uchun turli psixologik va katta to'siqlarga duch kelishadi. Chunki, ular bir-birlari to'g'risida kam ma'lumotlarga ega bo'lishadi. Shu sababli ham ularning bir-biriga ishonchini baholash va ular o'rtasidagi moslashuvchanlikni kuchaytirish qiyin kechadi.

Ikkinchidan, onlayn mediatsiyaga qatnashish uchun internet va boshqa elektron muhitga kirishdagi cheklovlar. Ma'lumki, onlayn mediatsiyani olib borishda internet va elektron aloqa vositalari muhim ro'l o'ynaydi. Onlayn kompyuterlarga kirish esa ba'zi shaxslar, ayniqsa oflays tranzaktsiyalar natijasida kelib chiqadigan nizolar bilan shug'ullanuvchilar uchun muammo tug'dirishi mumkin. Chunki, bu shaxslar doimo o'z tijorat bitimlari yoki boshqa aloqalarni bevosita yuzma yuz olib borishga o'rganib qolishgan. Munozarani hal qilish uchun zarur bo'lgan vaqt davomida uzluksiz Internetga kirish (bu bir necha soatdan tortib bir necha kungacha farq qilishi mumkin) imkoniyati cheklanganlar yoki buni qilish noqulay yoki noqulay deb hisoblaganlar uchun ham muammo tug'dirishi mumkin. Bu, shuningdek, kompyuterlar va ulardan foydalanish bilan kamroq tanish bo'lganlar yoki batafsil yozma aloqalarni amalga oshirishga qodir bo'limganlar uchun noqulay bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, kiber-vositachilik nizolarni hal qilishning eng arzon muqobillaridan biri bo'lishi mumkin bo'lsa-da, u talab qiladigan nisbatan oddiy to'lovlar hali ham elektron tijorat nizolarida ishtirok etayotgan ko'plab shaxslar uchun imkonsiz bo'lishi mumkin. Onlayn nizolar odatda kichik summalarga taalluqli bo'lgani uchun kiber vositachilik narxi muhim ahamiyatga ega.

Misol uchun, SettlementOnline har bir kelishuv uchun 300 dollar to'lovnini talab qiladi (har bir hal qilingan da'vo uchun 150 AQSh dollari to'lovi, qo'shimcha hisob-

⁴ Ethan Katsh, Janet Rifkin and Alan Gaitenby, E-Commerce, E-Disputes, and E-Dispute Resolution: In the Shadow of "eBay Law," 15 OHIO ST. J. ON DISP. RESOL. 705, 714 (2000)

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11

kitob summasidan tashqari 150 AQSh dollari miqdorida to'lov olinadi).⁵ CyberSettle 5000 dollardan kam bo'lgan har qanday hisob-kitob uchun 100 AQSh dollari miqdorida to'lov talab qiladi.⁶

Shu sababli ham taraflar bir necha yuz dollarlik nizolar uchun nizoni hal qilishga yordam beradigan xizmatga potensial kelishuvning uchdan bir qismini to'lashni xohlamasliklari mumkin. Natijada, nizolarni onlayn hal qilishda da'vo miqdori kam bo'lgan nizolar ko'rishi samarasiz bo'lib qoladi. Ushbu saytlar oladigan to'lovlar ba'zi nizolarni ko'rib chiqilishiga to'siq bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, maxfiylik va xavfsizlikdagi kamchiliklar. Bilamizki, mediatsiyaga taraflarning murojaat qilishining asosiy sabablaridan biri bu maxfiylik prinsipining mavjudligi. Ya'ni, mediatsiya jarayonida ma'lum bo'lgan har qanday ma'lumot taraflarning ruxsatisiz oshkor etilishi mumkin emas. Bu prinsipga amal qilish an'anaviy mediatsiya jarayonida muommo tug'dirmaydi. Chunki, taraflar bir-birini yuzma yuz ko'rib odatda og'zaki muzokaralar olib boriladi. Faqatgina mediator ba'zi ma'lumotlarni yozib borishi mumkin. Lekin mediatsiya tugashi bilan mediator ushbu yozuvlarni yo'q qiladi. Bu jarayon onlayn mediatsiyada qo'llash va amal qilish bir muncha qiyinchiliklarga sabab bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, onlayn mediatsiya turli elektron vositalar orqali olib borilganligi uchun undagi yozilgan ma'lumotlar yoki real vaqt rejimida olib boriladigan muzokaralar ham bevosita istalgan taraf tomonidan osongina yozib olinishi mumkin. Va bundagi ma'lumotlar chop etilib, boshqa shaxslarga tarqatilishi xavfi mavjud. Bu xavfdan himoyalanish tizimi onlayn mediatsiya mavjud emas.

Bundan tashqari onlayn mediatsiya jarayonidagi elektron hujjatlar yoki yozishmalar hakkerlar tomonidan buzib kirilib, begona shaxslar tomonidan mediatsiya taraflariga tegishli bo'lgan maxfiy ma'lumotlar ommaga ochiqlanishi mumkin.

To'rtinchidan, shaxsni tasdiqlashdagi qiyinchiliklar. Mediatsiya jarayoni boshlanishidan oldin, taraflarning shaxsiy ma'lumotlari tekshirilishi lozim. Chunki, nizoga aloqador bo'limgan boshqa shaxslar taraflarning ruxsatisiz qatnashishi mumkin emas. Bu jarayon an'anaviy mediatsiya jarayonida mutlaqo qiyinchilik

⁵ SettlementOnline, Settlement Online Pilot Program Proposal, at <http://settlementonline.com/Proposal.html> (last visited Nov. 27, 2002).

⁶ Cybersettle, Attorney Pricing, at http://www.cybersettle.com/products/atty_pricing.asp (last visited Nov. 27, 2002).

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11

tug'dirmaydi. Ammo nizoni onlayn muhitda hal etishda shaxsning ma'lumotlarini tekshirishda qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Onlayn mediatsiya internet maydoniga asoslanganligi sababli, xabarlar va elektron pochta xabarlarining haqiqiyligini tekshirish qiyin. Shuning uchun, xabarlar osongina nusxalanishi va jo'natuvchi bo'lib ko'rindigan shaxs tomonidan yuborilishi mumkin.

MUHOKAMA YUZASIDAN MUOMMOLARGA YECHIM VA TAKLIFLAR

Yuqorida onlayn mediatsiyada yuz beradigan doimiy va asosiy kamchilik va muommolarni sanab o'tdik. Bevosita ushbu kamchiliklarni bartaraf etish va ularga muqobil yechimlar ishlab chiqish lozim. Ushbu muommolarga yechim sifatida quyidagilarni berishimiz mumkin:

- Onlayn mediatsiyada taraflarning bir-biriga hissiy jihatdan ta'sir etishi va o'zlarining ichidagi emotsiyalarini yetkazib berish an'anaviy mediatsiyaga nisbatan cheklanganligini va mediatorning bu holatda taraflarning bir yechimga olib kelishdagi muommolar mavjudligi aniqlandi. Bu holatda asosiy yechim taraflarning va ayniqla mediatorning yozma qobiliyatlariga ko'proq urg'u berish lozim. Chunki, yozishmalar onlayn mediatsiyada asosiy o'rinni tashkil etadi. Mediator taraflar bilan muzokaralar olib borishda yuqori darajadagi yozma qibiliyatlardan foydalanib, ularni bir yechimga kelishga undash va mediativ kelishuvning afzalliklarini tushuntirib bera olishi kerak.

- Internet bilan bog'liq muommolar barcha davlatlarda birdek yaxshi tizimga ega emas. Onlayn mediatsiyani olib borishdan oldin mediator, albatta, taraflarning tzimga kira olish imkoniyatlarini tekshirib olishi lozim. Onlayn mediatsiyani real vaqt rejimida olib borishdagi uzilishlar yoki tizimga kirish imkoniyatlarining cheklanganlik holatlari yuzasidan esa yechim sifatida mediatsiyaning sinxron ya'ni real vaqt rejimida videkonferensalaloqa tizimida emas, ko'proq yozma hujjatlar topshirish orqali amalga oshirilishi lozim. Bunda asosiy vositalar sifatida esa turli saytlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu muommoga ikkinchi yechim sifatida esa sun'iy intellektidan foydalangan holda turli nizolarni hal eta oladigan elektron tizimlarni ishlab chiqish lozim. Taraflar o'rtasida nizo kelib chiqqan holda ular nizoni hal etish uchun ushbu tizimlarga murojaat etishishi mumkin. Ushbu tizim esa nizo bo'yicha hujjatlarni tahlil qilib, taraflarga muqobil yechimlar taklif qiladi. Shuningdek, ODR platformalaridagi to'lovlarni

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11

kichik nizolar uchun to'lov miqdorini da'vo miqdoridan kelib chiqib belgilash lozim. Chunki, yuqorida tahlil qilganimizdek, kichik nizolar va katta nizolar uchun ham bir miqdordagi to'lov nizolarni onlayn ko'rishning samaradorligini tushishiga olib keladi.

- Onlayn mediatsiyani qo'lllashda maxfiylik va xavfsizlikni ta'minlash uchun quyidagi xavfsizlik qoidalarini ishlab chiqish lozim: birinchidan, professional ma'lumotlarni himoya qilish agentliklari tomonidan onlayn mediatsiyani olib borishdagi hujjatlar almashinuvlari bo'yicha xavfsizlik yo'riqnomalari ishlab chiqish. Misol uchun, xavfsizlik bo'yicha yo'riqnomalar ma'lumotlarga kimlar kirishi mumkinligi, ma'lumotlardan qanday foydalаниlishi va maxfiylik tartib-qoidalari bo'yicha har qanday cheklovlar haqida ma'lumotlarni taqdim etishni o'z ichiga olishi mumkin. ikkinchidan, onlayn mediatsiya platformasi uchun xalqaro xavfsizlik sertifikatiga ega bo'lishni majburiy etib belgilash. Uchinchidan, shifrlash usullarini amalga oshirish, ya'ni axborot yoki xabarlarni faqat vakolatli shaxslar o'qishi mumkin bo'lgan kodlash jarayonini ishlab chiqish. Bunga shaxsiy kalit (ya'ni, u tegishli egasi uchun maxfiy bo'lishi kerak) va ochiq kalitni taqdim etish kiradi. Ochiq kalit shifri taraflar, mediator va nizo yuzasidan talluqli boshqa uchinchi shaxslar uchun amal qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytkanda, onlayn mediatsiya instituti taraflar uchun an'anaviy mediatsiyaga nisbatan qulayligi, narxlarning tejalishi va ortiqcha ovoragarchiliklarning kamligi uchun ham bugungi kunda rivojlanib kelmoqda. Ammo, barcha nizolarni onlayn ko'rib chiqilishining imkonи yo'q. Chunki, onlayn mediatsiya jarayonidagi ba'zi kamchiliklar ham mavjud. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun yechimlar mayjud bo'lib, bu yechimlarni amaliyatda qo'llash orqali onlayn mediatsiya institutini rivojlantirish va kelgusida yanada ko'proq imkoniyatlар yaratish mumkin.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yevropa Parlamenti va Kengashining 2008-yil 21-maydagi 52-sonli fuqarolik va tijorat sohalarida mediatsiyani qo'llash bilan bog'liq Direktivasi.
2. Yevropa Parlamenti va Kengashining 2013-yil 21-maydagi 524/2013-sonli "Iste'molchi nizolari bo'yicha nizolarni onlayn hal etish" to'g'risidagi reglamenti.
3. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 03-iyuldaggi "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuni.
4. Regulation anda practical problems of jurisdiction of the arbitration tribunal (based on UNCITRAL Model Law). Dissertatsiya. M.B.Bakhramovna.
5. Harold Abramson, Problem-Solving Advocacy in Mediations: A Model of Client Representation, 10 HARV. NEGOT. L. REV. 103, 106 (2005).
6. Donna Shestowsky, Procedural Preferences in Alternative Dispute Resolution: A Closer, Modern Look at an Old Idea, 10 PSYCHOL. PUB. POL'Y & L. 211, 214 (2004)
7. Linda Brannack, Resolving Disputes Between Physicians & Nurses: How to Get the Most from ADR in the Health Care Industry, 56-JUL DIsp. RESOL. J. 46, 48 (2001).
8. E. Casey Lide, ADR and Cyberspace: The Role of Alternative Dispute Resolution in Online Commerce, Intellectual Property and Defamation, 12 OHIO ST. J. ON DISP. RESOL. 193, at 208 (1996).
9. George H. Friedman, Alternative Dispute Resolution and Emerging Online Technologies: Challenges and Opportunities, 19 HASTINGS COMM. & ENT. LJ. 695, 712 (1997).
10. Nurumbetova, S. (2022). VAIN ASPECTS OF PRACTICAL RELIGIOUS EXAMINATION IN THE INVESTIGATION OF CRIMES RELATED TO PROHIBITED RELIGIOUS MATERIALS. Science and Innovation, 1(6), 108-113.
11. Nizolarni hal qilishning muqobil usullari/O'quv qo'llanma. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b. I.M.Salimova. – Toshkent: TDYU, 2022. – 208 bet.

Foydalanilgan internet manbalar:

1. <http://settlementonline.com/Proposal.html>
2. http://www.cyber settle.com/products/atty_pricing.asp